

PIRIMQUL QODIROVNING “YULDUZLI TUNLAR” ROMANIDA QO‘LLANGAN IJTIMOYIY -SIYOSIY LEKSIKANING SEMANTIK VA USLUBIY XUSUSIYATLARI**Ro‘zmatov Sodiqjon**

AIFU 1-kurs magistr.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19666762>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanida qo‘llangan ijtimoiy-siyosiy leksikaning semantik va uslubiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Asarda davr ruhini aks ettiruvchi terminlar, unvonlar va ijtimoiy tushunchalarning badiiy matndagi o‘rni, ularning qahramonlar xarakterini ochishdagi vazifasi hamda muallif uslubidagi o‘ziga xosliklar misollar yordamida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: tarixiy roman, ijtimoiy-siyosiy leksika, semantika, uslubiyat, arxaizm, unvon, badiiy mahorat, davlat boshqaruvi.

Аннотация. В данной статье анализируются семантические и стилистические особенности общественно-политической лексики, использованной в романе Пиримкула Кадырова «Звездные ночи». На примерах освещаются роль терминов, титулов и социальных понятий, отражающих дух эпохи, их функция в раскрытии характеров героев, а также своеобразие авторского стиля в художественном тексте.

Ключевые слова: исторический роман, общественно-политическая лексика, семантика, стилистика, архаизм, титул, художественное мастерство, государственное управление.

Abstract. This article analyzes the semantic and stylistic features of socio-political lexicon used in Pirimkul Kadirov's novel "Starry Nights". The role of terms, titles, and social concepts reflecting the spirit of the period in the literary text, their function in revealing the characters, and the peculiarities of the author's style are highlighted through examples.

Keywords: historical novel, socio-political lexicon, semantics, stylistics, archaism, title, artistic skill, state administration.

O‘zbek adabiyoti tarixida tarixiy romanlar alohida o‘rin egallaydi. Ayniqsa, tarixiy shaxslar hayoti va faoliyatini badiiy talqin qilish orqali xalqning o‘tmishi, siyosiy hayoti hamda ijtimoiy munosabatlarini yoritish muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shunday asarlardan biri O‘zbekiston xalq yozuvchisi Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanidir. Mazkur romanda buyuk davlat arbobi va sarkarda Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti, uning siyosiy faoliyati, murakkab tarixiy jarayonlar hamda o‘sha davr ijtimoiy muhitini badiiy jihatdan yuksak mahorat bilan tasvirlab berilgan.

Asarda nafaqat tarixiy voqealar, balki o‘sha davr siyosiy hayoti, davlat boshqaruvi, saroy muhitidagi munosabatlar hamda jamiyatdagi ijtimoiy qatlamlar o‘rtasidagi aloqalar keng yoritilgan. Bu jarayonlarni ifodalashda yozuvchi turli ijtimoiy-siyosiy leksik birliklardan mahorat bilan foydalangan. Ushbu leksik birliklar asarda tarixiy davr ruhini yaratish, qahramonlarning mavqeini ko‘rsatish hamda voqealarning siyosiy mazmunini ochib berishda muhim stilistik vosita sifatida xizmat qiladi.

“Ijtimoiy-siyosiy leksika” tilshunoslikda jamiyatning siyosiy tuzilishi, davlat boshqaruvi, ijtimoiy munosabatlar va tarixiy jarayonlarni ifodalovchi so‘z va iboralar majmui sifatida qaraladi. “Yulduzli tunlar” romanida bunday birliklar keng qo‘llanib, ular orqali o‘sha davrning siyosiy tizimi, davlat lavozimlari, saroy an‘analari hamda ijtimoiy hayotining turli jihatlar aks

ettiriladi. Bu esa asarning nafaqat badiiy, balki tilshunoslik nuqtai nazaridan ham katta ilmiy qimmatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Mazkur maqolada Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" romanida qo'llangan ijtimoiy-siyosiy leksikaning semantik va uslubiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Asarda ishlatilgan ijtimoiy-siyosiy terminlar, tarixiy atamalar va ularning ma'no jihatlarini hamda badiiy matndagi uslubiy vazifasi o'rganiladi.

Tadqiqotning maqsadi – "Yulduzli tunlar" romanida qo'llangan ijtimoiy-siyosiy leksik birliklarni aniqlash, ularning semantik xususiyatlarini tahlil qilish hamda badiiy matnda tutgan uslubiy o'rnini yoritib berishdan iborat. Tarixiy roman janri yozuvchidan nafaqat tarixiy faktlarni bilishni, balki o'sha davrning til xususiyatlarini, ijtimoiy-siyosiy tuzilishini aks ettiruvchi leksik qatlamni mahorat bilan qo'llashni talab etadi. "Yulduzli tunlar" romanida Temuriylar davri va Boburiyodalar saltanatining murakkab siyosiy jarayonlarini tasvirlashda boy ijtimoiy-siyosiy leksikadan foydalangan. Asardagi ijtimoiy-siyosiy leksika o'zining ma'no ko'lamiga ko'ra bir necha guruhga ajratilgan holda tahlili qilish mumkin:

Davr koloritini yaratish: Arxaik xarakterdagi siyosiy terminlar o'quvchini o'rta asrlar muhitiga olib kiradi. Masalan, "*podshohlik xutbasi*" yoki "*muhr bosish*" kabi iboralar davrning rasmiy-siyosiy protokollarini aniq ko'rsatadi.

Individuallashtirish: Boburning nutqida ko'proq adolat, xalqparvarlik va davlat mustahkamligini ifodalovchi siyosiy leksika (adolat, raiyat, el-yurt) ustunlik qilsa, Shayboniyxon obrazida bosqinchilik va qat'iy hokimiyat tushunchalari (istilo, hokimi mutlaq) ko'p qo'llanadi.

Yozuvchi ijtimoiy-siyosiy leksika orqali o'zining qahramonlarga bo'lgan munosabatini ham ifodalaydi. Masalan, "*toj-u taxt talashish*" iborasini salbiy konnotatsiyada qo'llash orqali o'zaro nizolarning fojaviy oqibatlariga ishora qiladi. "Yulduzli tunlar" romanidagi ijtimoiy-siyosiy leksika shunchaki tarixiy atamalar yig'indisi emas, balki asarning g'oyaviy-badiiy asosini tashkil etuvchi qudratli vositadir. Pirimqul Qodirov ushbu so'zlar orqali Boburning murakkab siyosiy yo'li va davrning og'ir ijtimoiy manzarasini realistik bo'yoqlarda chizib berishga muvaffaq bo'lgan. Masalan: *Siyosiy sulh imzolanishi uchun ikki davlat orasida elchilar tinimsiz qatnardi* (310-bet). "**Sulh**" – siyosiy bitim, "**elchi**" – diplomatik vakil. Davlatlararo diplomatik aloqalar mexanizmini ko'rsatish *sulh* (arabcha: tinchlik bitimi) – diplomatik munosabat.

"**SULH**" so'zi ko'pincha siyosiy, tarixiy va diplomatik matnlarda qo'llanadi. Bu so'z davlatlar o'rtasidagi munosabatlar yoki siyosiy kelishuvlarni ifodalash uchun ishlatiladi. "**SULH**" so'zi o'zbek tilida ijtimoiy-siyosiy leksikaga mansub bo'lib, uning asosiy semantik mazmuni *yarashuv, tinchlik va kelishuv* tushunchalarini ifodalaydi. U ko'proq tarixiy, siyosiy va ilmiy uslubda qo'llanadi. Badiiy adabiyotlarda esa tarixiy voqealarni tasvirlashda hamda obrazlilikni kuchaytirishda muhim uslubiy vosita sifatida xizmat qiladi.

Qamal (turkiy: o'rab olish) – harbiy strategiya. *Qamal* so'zi o'zbek tilida asosan harbiy va ijtimoiy-siyosiy leksikaga kiradi. Lug'aviy jihatdan u biror shahar, qal'a yoki hududni qo'shin bilan o'rab olib, uni tashqi yordamdan uzib qo'yish degan ma'noni bildiradi. Bu holat odatda urush yoki jang jarayonida yuz beradi. "**Qamal**" so'zi asosan harbiy, tarixiy va siyosiy matnlarda qo'llanadi. Ayniqsa tarixiy romanlarda bu so'z urush strategiyasi va jang jarayonlarini tasvirlashda muhim rol o'ynaydi. Badiiy matnda "*qamal*" so'zi ko'chma ma'noda ham ishlatiladi. Bu holatda u ruhiy bosim yoki qiyin vaziyatni ifodalaydi.

Vatanfurushlik (arabcha vatan + forscha furush – sotuvchi) – murakkab ijtimoiy-siyosiy tushuncha. Bu yerda "*sulh*" so'zi shunchaki tinchlik emas, balki mag'lubiyatni tan olishdek siyosiy ma'noni yuklaydi.

“*Vatanfurushlik*” soʻzi orqali adib Boburning siyosiy-axloqiy tamoyillarini ochib beradi. Semantik jihatdan bu soʻz xiyonat, sotqinlik, xoinlik kabi soʻzlarga yaqin hisoblanadi.

Vatanfurushlik soʻzi asosan siyosiy va publitsistik matnlarda qoʻllanadi. U davlat manfaatlariga qarshi qilingan harakatlarni qoralash uchun ishlatiladi. Tarixiy romanlarda, jumladan “Yulduzli tunlar” asarida, “*vatanfurushlik*” tushunchasi siyosiy fitna, xiyonat yoki sotqinlik holatlarini tasvirlashda ishlatiladi. Jamiyatning tabaqalanishi va uning huquqiy maqomini ifodalovchi leksika asarning ijtimoiy yukini belgilaydi.

Fuqaro soliqlar ogʻirligidan dod deydi. Raiyatni himoya qilmagan hukmdorning taxti omon qolmaydi (285-bet).

Fuqaro (arabcha: faqir soʻzining koʻpligi, kambagʻallar) – dastlab ijtimoiy qatlam, keyinchalik “davlat fuqarosi” maʼnosini olgan. “*Fuqaro*” soʻzi koʻpincha rasmiy, huquqiy va siyosiy matnlarda ishlatiladi. U davlat va jamiyat munosabatlarini ifodalashda muhim termin hisoblanadi. Publitsistik va siyosiy nutqda “*fuqaro*” soʻzi jamiyat aʼzolarini umumiy nom bilan atash uchun ishlatiladi.

Raiyat (arabcha: podaga qarovchi, xalq) – hukmdor himoyasidagi omma. Bu soʻzlar asarda Boburning adolat haqidagi monologlarida keladi. Adib arabcha oʻzlashmalarni qoʻllab, oʻsha davr huquqiy va diniy terminologiyasini aniq aks ettirgan. “*Raiyat*” soʻzi koʻpincha tarixiy, siyosiy va diplomatik matnlarda uchraydi. U davlat tuzilishi, soliq tizimi, ijtimoiy tabaqalarni tasvirlash uchun ishlatiladi. Tarixiy romanlarda, mazkur leksema oddiy xalq hayoti, ularning qiyinchiliklari va hukmdor bilan munosabatlarini koʻrsatishda ishlatiladi.

Begim (turkiy bek soʻzining ayollar varianti): Aslzoda ayollar unvoni. [OʻTIL, 1-jild, 222-bet.] Begim soʻzi turkiy va fors tillaridan kirib kelgan boʻlib, asosan yuqori ijtimoiy tabaqaga mansub ayol shaxsni bildiradi. Lugʻaviy maʼnosi: amaldor, hukmdor yoki boy kishi ayoli, xonim, xonadon malikasi. “*Begim*” soʻzi koʻpincha tarixiy roman, tarixiy matnlar va siyosiy kontekstlarda ishlatiladi. U hukmdorlar xonadonidagi ayollar, amaldorlarning xonimlari va jamiyatdagi yuqori tabaqani tasvirlash uchun xizmat qiladi.

Shajara (arabcha: daraxt): Nasabnoma, ajdodlar silsilasi. [OʻTIL, 4-jild, 550-bet.] *Shajara* soʻzi arab tilidan kirib kelgan boʻlib, oʻzbek tilida *nasl, avlod, urugʻ-nasl zanjiri, otabobolar tarixi* maʼnolarini bildiradi. “*Shajara*” soʻzi koʻpincha tarixiy, siyosiy va genealogik matnlarda uchraydi.

U avlod, sulola, hukmdor oilasi va urugʻ-nasl ni tasvirlashda ishlatiladi. “Yulduzli tunlar” romanida, “*shajara*” leksemasi qahramonning kelib chiqishi va obroʻsini koʻrsatish uchun ishlatilgan.

Xonadon (forscha: uy, sulola): Biror tabaqa yoki hukmdor oilasi. [ANATIL, 4-jild, 315-bet.] Bu leksik birlik orqali saroydagi ijtimoiy munosabatlar va ayollarning siyosiy jarayonlardagi oʻrni lisoniy vositalar orqali ifodalangan. “*Xonadon*” soʻzi koʻpincha tarixiy, badiiy va siyosiy matnlarda ishlatiladi. U oilaviy maqom, jamiyatdagi obroʻ va ijtimoiy mavqeni ifodalashda xizmat qiladi. Tarixiy romanda, “*xonadon*” soʻzi qahramonlarning ijtimoiy maqomi, oilaviy holati va tarixini ochib beradi.

Samarqand jome masjidida Bobur Mirzo nomiga xutba oʻqildi. Shayxulislom va barcha ulamolar yangi hukmdorga bayʼat qildilar (124-bet).

Xutba (arabcha: vaʼz, nutq): Juma namozida hukmdor nomini tilga olib oʻqiladigan diniy-siyosiy matn. Bu hukmdorning taxtga qonuniy oʻtirganini tasdiqlaydi [OʻTIL, 4-jild, 422-bet.] *Xutba* soʻzi diniy matnlarda va ibodat kontekstida ishlatiladi. U jamiyatga diniy, axloqiy va maʼnaviy taʼlim berish vazifasini bajaradi.

Tarixiy asarlarda, jumladan “Yulduzli tunlar” romanida, “*xutba*” siyosiy va rasmiy kontekstda ishlatiladi. U hukmdor farmonlarini, taxtga hukmdor kirishini yoki siyosiy voqealarni e’lon qilish vositasi sifatida namoyon bo’ladi.

Shayxulislom (arabcha: islom oqsoqoli): Davlatdagi eng oliy diniy martaba, fatvo berish huquqiga ega shaxs. [ANATIL, 4-jild, 456-bet.] *Shayxulislom* arabcha iboradan kelib chiqqan bo’lib, lug’aviy jihatdan “*islomning shayxi*”, ya’ni islomiy bilimlar va diniy masalalar bo’yicha eng yuqori darajadagi mutaxassis degan ma’noni bildiradi. Bu so’z diniy, tarixiy va siyosiy matnlarda uchraydi. U islomiy huquq va siyosatni uyg’unlashtiruvchi shaxsni ifodalashda ishlatiladi.

Ulamo (arabcha: olim so’zining ko’pligi): Diniy ilmlar bilimdonlari, jamiyatning ma’naviy-siyosiy qatlami. [O’TIL, 4-jild, 280-bet.] “*Ulamo*” so’zi diniy, siyosiy va tarixiy matnlarda uchraydi. U islomiy qonunlar va jamiyat tartibini belgilovchi shaxslarni ifodalash uchun ishlatiladi. Romanda “*ulamo*” so’zi diniy bilimdonlar va siyosiy maslahat beruvchilar rolini ko’rsatadi.

Bay’at (arabcha: sotish, ahdlashish): Hukmdorga sadoqat bildirish, uning hokimiyatini tan olish marosimi. [O’TIL, 1-jild, 215-bet.] Adib ushbu termin orqali o’rta asrlarda din va siyosat bir-biri bilan chambarchas bog’liq bo’lganini, hokimiyatni xalq tan olishi uchun diniy ruxsat zarurligini ko’rsatgan.

Bobur Mirzo fatvosiz ish tutmaslikka harakat qilardi. Ammo dushman tomonning murtad deb e’lon qilinishi siyosiy nizolarni yanada keskinlashtirdi (268-bet).

Fatvo (arabcha: tushuntirish, hukm): Shari’at bo’yicha muftiy yoki shayxulislom tomonidan beriladigan huquqiy qaror. [O’TIL, 4-jild, 335-bet.] “*Fatvo*” so’zi diniy, siyosiy va tarixiy matnlarda ishlatiladi. U islomiy qonunlar asosida berilgan rasmiy qaror yoki maslahatni ifodalash uchun xizmat qiladi. “Yulduzli tunlar” romanida, “*fatvo*” jamiyatdagi diniy hukm va siyosiy qarorlarni ko’rsatish vositasi sifatida ishlatilgan.

Murtad (arabcha: qaytgan, voz kechgan): Dinidan qaytgan shaxs. Siyosiy ma’noda dushmani yakson qilish uchun qo’llanilgan ayblov. [ANATIL, 2-jild, 485-bet.] Semantik jihatdan bu so’z dinini tark etgan, ijtimoiy xavf tug’diruvchi, e’tiqodidan qaytgan shaxs tushunchalari bilan bog’liq. “*Murtad*” so’zi diniy va huquqiy matnlarda ko’p ishlatiladi. U islomiy qonunlar nuqtai nazaridan jazolanishi mumkin bo’lgan shaxsni ifodalaydi. Asarda “*murtad*” so’zi ijtimoiy va diniy nizolarni ko’rsatishda ishlatiladi.

Nizo (arabcha: talashish, janjal): Ikki siyosiy kuch o’rtasidagi kelishmovchilik, mojaro. [O’TIL, 3-jild, 55-bet.] Yozuvchi ushbu murakkab termin yordamida urushlar nafaqat qurol bilan, balki mafkuraviy va diniy ayblovlar orqali ham olib borilganini badiiy tahlil qiladi. “*Nizo*” so’zi siyosiy, tarixiy va ijtimoiy matnlarda uchraydi. U mojaro va ziddiyatni tasvirlashda ishlatiladi.

Romanda, “*nizo*” so’zi qarama-qarshilik, mojaro va dramatik vaziyatlarni ko’rsatish vositasi sifatida ishlatiladi.

Amirul mo’minin unvonini olish Boburning eng katta siyosiy g’alabasi edi. Bu bilan u barcha musulmonlarning rahnamosiga aylandi (342-bet).

Amirul mo’minin (arabcha: mo’minlar amiri): Xalifalar va buyuk hukmdorlar qo’llagan eng oliy siyosiy-diniy unvon. [ANATIL, 1-jild, 112-bet.] “*Amiral-Mu’minin*” so’zi tarixiy, siyosiy va diniy matnlarda ishlatiladi. U hokimiyat va vakolatni tasvirlashda xizmat qiladi.

Tarixiy matnlarda va diniy adabiyotda, jumladan “Yulduzli tunlar” romanida, ushbu leksema islomiy qonun va jamiyat tartibini saqlovchi shaxs sifatida ishlatiladi.

Rahnamo (forscha: yo‘l ko‘rsatuvchi): Siyosiy rahbar, yo‘lboshchi. [O‘TIL, 3-jild, 360-bet.] “*Rahnamo*” so‘zi tarixiy, siyosiy va ijtimoiy matnlarda yetakchilik va boshqaruv rolini ko‘rsatadi. Tarixiy va badiiy romanlarda “*rahnamo*” qahramonning boshqaruv va yetakchilik rolini aks ettirish uchun ishlatiladi. Ushbu parcha Boburning Hindistonda o‘z imperiyasini mustahkamlashda foydalangan mafkuraviy qurolini ifodalaydi.

Bobur Mirzo Ulug‘bek ko‘p yillar davomida to‘plagan nodir kitoblarni ko‘zdan kechirar ekan, bobosining naqadar buyuk zakovat egasi bo‘lganiga yana bir bor iymon keltirdi (28-bet).

Zakovat (arabcha: o‘tkir zehn, donolik): Insonning aqliy quvvati va fahm-farosati. [O‘TIL, 2-jild, 126-bet.] “*Zakovat*” so‘zi ilmiy, ma‘naviy va badiiy matnlarda shaxsning aqliy va dono sifatlarini ifodalashda xizmat qiladi. Tarixiy romanlarda qahramonlarning aqliy va dono salohiyatini ta‘kidlash vositasi sifatida ishlatiladi.

Iymon keltirmoq (arabcha/forscha: ishonmoq): Biror narsaning haqiqatligiga chin dildan ishonish, tan bermoq. “Iymon keltirmoq” iborasi diniy matnlarda va tarixiy kontekstlarda uchraydi va shaxsning diniy e‘tiqodi va ma‘naviy yetukligini ifodalash vositasi sifatida ishlatiladi. Romanda “*iymon keltirmoq*” iborasi qahramonning ruhiy o‘sishi va diniy e‘tiqodini qabul qilishini ko‘rsatadi.

Kengashda g‘ulomlar va beklar saf tortib turardilar. Bobur har bir tumanbegi bilan alohida maslahatlashib, yasovulga maxsus topshiriqlar berdi (186-bet).

Yasovul (mo‘g‘ulcha: tartibga soluvchi): Urush paytida qo‘shinning tartibini saqlaydigan, podshoh buyruqlarini yetkazuvchi harbiy amaldor. [O‘TIL, 5-jild, 48-bet.] “*Yasovul*” so‘zi tarixiy, siyosiy va harbiy matnlarda uchraydi. U hokimiyat va tartibni nazorat qiluvchi shaxsni ifodalashda xizmat qiladi. “Yulduzli tunlar” romanida “*yasovul*” so‘zi xodim va tekshiruvchi shaxs rolini ko‘rsatish uchun ishlatiladi.

G‘ulom (arabcha: yigit, qul): O‘sha davrda hukmdorning maxsus saroy gvardiyasi yoki shaxsiy soqchisi hisoblangan jangchi. “*G‘ulom*” so‘zi tarixiy, siyosiy va ijtimoiy matnlarda egasi yoki hokimiyat vakolatiga bo‘ysunuvchi shaxsni ifodalashda xizmat qiladi. Tarixiy romanda mazkur leksema ijtimoiy tabaqa va xizmatkor shaxs rolini ko‘rsatish uchun ishlatilgan.

Shayboniyxon Samarqand qalasini qamal qildi. Mudofaa chog‘ida mardona jang qilgan sipohiylarning shijoati Boburni ruhlantirdi (242-bet).

Sipohiy (forscha: askar, lashkar): Otliq jangchi, qo‘shin a‘zosi. [O‘TIL, 3-jild, 524-bet.] “*Sipohiy*” so‘zi tarixiy, harbiy va siyosiy matnlarda harbiy xizmat va qo‘shin tarkibini ifodalashda xizmat qiladi. Romanda “*sipohiy*” so‘zi harbiy xizmat va jasorat timsoli sifatida ishlatiladi.

Shijoat (arabcha: botirlik, qo‘rqmaslik): Xavf-xatardan hayiqmaslik, matonat ko‘rsatish xislati. [O‘TIL, 4-jild, 581-bet.] “*Shijoat*” so‘zi tarixiy va badiiy matnlarda qahramonlik va jasoratni ifodalashda xizmat qiladi. Tarixiy matnlarda va siyosiy kontekstda, jumladan “Yulduzli tunlar” romanida harbiy va siyosiy jasoratni ko‘rsatish vositasi sifatida ishlatiladi.

Kobul bog‘larida o‘tirgan Boburning ko‘z oldidan Andijonning musaffo havosi va qovunlarining atri o‘tdi. G‘urbatda vatan yodi qalbini o‘pmar edi (415-bet).

G‘urbat (arabcha: musofirlik, chet el): O‘z vatanidan uzoqda, begona yurtda bo‘lish holati. [O‘TIL, 5-jild, 592-bet.] Semantik jihatdan so‘z *chet ellik, yakkalanish, sog‘inch, izolyatsiya, vatan sog‘inch* tushunchalari bilan bog‘liq. “*G‘urbat*” so‘zi badiiy, tarixiy va ijtimoiy matnlarda shaxsning vatan yoki yaqinlaridan uzoqligini, ruhiy iztirobini ifodalashda xizmat qiladi. Tarixiy va badiiy romanlarda mazkur leksema ijtimoiy, siyosiy yoki shaxsiy izolyatsiyani ko‘rsatish vositasi sifatida ishlatiladi.

Atr (arabcha: xushbo‘y hid): Yoqimli hid, tarovat. Klassik adabiyotda ko‘p qo‘llaniladi.

Semantik jihatdan so‘z xushbo‘y hid, yoqimli aroma, tabiat va go‘zallik timsoli tushunchalari bilan bog‘liq. “*Atr*” so‘zi badiiy va lirik matnlarda uchraydi, go‘zallik, yoqimli hid va estetik taassurotni ifodalashda xizmat qiladi. U ko‘pincha ruhiy holat va go‘zallik timsoli sifatida tasvirlanadi.

Xulosa qilib aytganda, Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romani ijtimoiy-siyosiy leksika jihatdan nihoyatda boy bo‘lib, undagi leksika tarixiy haqiqat, siyosiy ong va davlat boshqaruvi tizimini badiiy tarzda yoritadi. Uni o‘rganish romanda qo‘llangan ijtimoiy -siyosiy leksikaning semantik va uslubiy xususiyatlari, tarixiy til taraqqiyoti, o‘zbek davlatchilik terminologiyasining shakllanishi va jamiyatning siyosiy tasavvurlari haqida aniq tasavvur beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qodirov P. Yulduzli tunlar. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2004.
2. Nizomiddinov N. Boburiylar davri Hindiston turkiy tili va adabiyoti. – Toshkent, 2010.
3. Raxmanova M. “Yulduzli tunlar” romanining lingvopoetik xususiyatlari. -Modern Education and Development jurnali, 2026.
4. Замонова Л. Ўзбек тили ижтимоий-сиёсий терминологияси тараққиёти. -Тошкент. 2012.
5. Дадабоев Х. “Военная лексика в староузбекском языке”. Проблемы лексики староузбекского языка: -Ташкент, 1990. С. 75-77.
6. Алишер Навоий асарларининг изоҳли луғати. -Тошкент, IV жидлик, 1983.
7. О‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent, VI jildlik. 2022-yil.